

Farg'ona viloyatida demografik holat

2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-yanvar holatiga Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni **4 223,0** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,9** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni **98,3** ming nafarni, vafot etganlar **18,7** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **79,6** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga ko'chib kelganlar soni **15 336** kishini va viloyatimizdan ko'chib ketganlar soni **16 569** kishini, qayd etilgan nikohlar **28,9** mingtani, nikohdan ajralishlar **4,9** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

4 223,0 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

98,3 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

18,7 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar

15 336 *kishi*

Ko'chib ketganlar

16 569 *kishi*

Nikohlar soni

28,9 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

4,9 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Farg'ona viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra **4 223,0** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **78,3** ming kishiga yoki **1,9** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **2 394,9** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **56,7** %), qishloq joylarda esa **1 828,2** ming kishi (**43,3**%) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **2 091,2** ming kishini (**49,5** %), erkaklar esa **2 131,8** ming kishini (**50,5** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 144,7	4 223,0	101,9
Farg'ona shahri	328,4	335,1	102,0
Qo'qon shahri	313,6	319,6	101,9
Quvasoy shahri	103,2	104,8	101,6
Marg'ilon shahri	257,9	261,9	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	233,1	237,3	101,8
Qo'shtepa	213,3	217,8	102,1
Bag'dod	238,2	243,0	102,0
Buvayda	252,7	258,2	102,2
Beshariq	247,2	251,3	101,7
Quva	280,7	285,4	101,7
Uchko'prik	246,9	252,1	102,1
Rishton	221,2	225,2	101,8
So'x	86,1	88,6	102,9
Toshloq	221,9	226,2	101,9
O'zbekiston	241,3	245,0	101,5
Farg'ona t.	226,0	230,2	101,9
Dang'ara	181,0	184,7	102,0
Furqat	129,8	132,2	101,8
Yozyovon	122,2	124,4	101,8

Farg'ona viloyatida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **624,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **11,6** kishiga ortgan (2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kv km **613,2** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv km ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **98,3** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,5** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **4,8** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **18,7** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,8** ming nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **98,3** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **50,7** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,5** %), qiz bolalar soni **47,6** ming kishini (**48,5** %) va shahar joylarida **50,6** ming kishini (**51,5** %), qishloq joylarida **47,7** ming kishini (**48,5** %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **18,7** ming kishini, shundan erkaklar **10,2** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **54,7**%), ayollar **8,5** ming kishini (**45,3**%) va shahar joylarida **9,9** ming kishini (**52,9**%), qishloq joylarida **8,8** ming kishini (**47,1**%) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **28,9** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,9** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,3** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **4,9** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **28,9** ming birlikni, shundan shahar joylarida **15,2** ming birlikni (**52,7 %**), qishloq joylarida **13,7** ming birlikni (**47,3 %**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **4,9** ming birlikni, shundan shahar joylarida **3,0** ming birlikni (**61,1 %**), qishloq joylarida **1,9** ming birlikni (**38,9 %**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **15 336** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **15 322** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **14** kishini tashkil qildi.

Ko'chib ketganlar jami soni **16 569** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **16 489** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **80** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Farg'ona viloyati	15 336	15 322	14	16 569	16 489	80
Farg'ona shahri	4 816	4 812	4	2 578	2 549	29
Qo'qon shahri	2 570	2 570	-	1 966	1 951	15
Quvasoy shahri	468	467	1	554	540	14
Marg'ilon shahri	939	939	-	1 626	1 620	6
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	190	190	-	566	565	1
Qo'shtepa	754	751	3	764	761	3
Bag'dod	206	206	-	500	500	-
Buvayda	263	263	-	457	456	1
Beshariq	246	246	-	713	711	2
Quva	400	400	-	712	709	3
Uchko'prik	292	292	-	638	638	-
Rishton	292	292	-	656	653	3
So'x	944	944	-	217	217	-
Toshloq	472	472	-	741	741	-
O'zbekiston	489	489	-	1 332	1 331	1
Farg'ona t.	883	878	5	1068	1 067	1
Dang'ara	527	527	-	767	767	-
Furqat	412	412	-	462	462	-
Yozyovon	173	172	1	252	251	1

Viloyatga ko'chib kelganlar va viloyatdan ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Xasanov
73 241-97-74 (4070)

